



UzNADA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY ANTIDOPING AGENTLIGI**

DOPING VA SOG'LIQ

DOPING TA'RIFI VA ANTIDOPING QOIDALARI.

Butun dunyo antidoping kodeksiga muvofiq doping mazkur Kodeksning 2.1-2.10 moddalarida keltirilgan antidoping qoidalarining bir yoki bir necha qonunbuzarliklarni sodir etish deb ta'riflanadi. Kodeksga ko'ra, bunday qoidabuzarliklarga nafaqat ijobiy doping sinama topshirish, balki boshqa qoidabuzarliklar ham kirishi mumkin. Antidoping qoidalarini buzishga quyidagilar kiradi:

- Ta'qiqlangan substansiyaning borligi yoki uni metabolitlarining sportchidan olingan namunada mavjudligi.
- Sportchi tomonidan ta'qiqlangan substansiya yoki ta'qiqlangan uslubdan foydalanish yoki foydalanishga urinish.
- Namuna topshirish jarayoniga kelmaslik, bosh tortish yoki rad etish.
- Joylashuv haqidagi ma'lumotni taqdim etish tartibini buzish.
- Doping nazoratini tashkil etishni qalbakilashtirish yoki qalbakilashtirishga urinish.
- Ta'qiqlangan substansiya yoki ta'qiqlangan uslubga ega bo'lish.
- Har qanday ta'qiqlangan substansiya yoki ta'qiqlangan uslubni tarqatish yoki tarqatishga urinish.
- Har qanday sportchiga ta'qiqlangan substansiya yoki ta'qiqlangan uslubni o'rgatish yoki tavsiya qilishga urinish.
- Birga gatnashish, yordam berish, rag'batlantirish, sharoit yaratib berish, ig'vogarlik, yashirish yoki qasddan ishtirok etish (bunga antidoping qoidalarini buzish yoki buzishga urinish ham kiradi).
- Ta'qiqlangan hamkorlik (sportchi yoki sportchining har qanday vakili bilan antidoping tashkiloti yurisdiksiyasi ostida bo'lgan boshqa bir shaxsning hamkorlik qilishi).

Antidoping qoidalarining buzilishi turli xil ishonchli uslublarda isbotlanishi mumkin. Bunga laboratoriya tadqiqotlari va boshqa "tahliliy bo'lmagan" dalillarni ham kiritish mumkin.

Dalillar o'z ichiga "sportchining biologik pasporti" (sportchining biologik ko'rsatkichlarini uzoq vaqt davomida tadqiq etish jarayonida yuzaga chiqadigan natija) tan olishi, guvohlarning ko'rsatmasi yoki boshqa turli hujjatli dalillarni olishi mumkin.

Butun dunyo antidoping kodeksiga muvofiq - har bir sportchi musobaqalardagi antidoping qoidalariga amal qilishi shart, chunki bu qoidalar sport musobaqalarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Sportchilar ushbu qoidalarni musobaqalarda qatnashish shartlari deb qabul qilishlari va unga bo'ysunishlari shart! Antidoping qoidalarini bilmaslik va e'tibor bermaslik bu sportchining shaxsiy javobgarligi ekanligi bayon qilingan!

DOPING VOSITALARINING TASNIFLANISHI:

Oxirgi yillarda sportda farmakologik preparatlardan foydalanish jiddiy muammoga aylanmoqda. Bunda oddiy vitaminlar qolib, jiddiy preparatlardan foydalanish yosh-o'spirinlar orasida ko'payib bormoqda. Murabbiylar, sportchilar, shuningdek, ota-onalarning o'zlari eng yuqori sport natijalariga erishish maqsadida yosh sportchilarga farmakologik vositalardan foydalanishlarini tavsiya etish holatlari ham aniqlanmoqda. Bu esa, yosh sportchining sog'lig'i sport ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun qabul qilayotgan preparatlardan jiddiy zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga qabul qilingan preparatlar natijasida yuzaga keladigan oqibatlar, tabiiyki klinik amaliyotda hali o'rganib chiqilmagan va u yosh sportchi sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

1. ANABOLIK STEROIDLAR

Eng xavfli doping vositalar; Professional va havaskor sportda keng tarqalgan preparatlarning ro'yxati yetarlicha katta bo'lib, turli qo'llash uslublariga ega (in'eksiya, tabletkalar, plastirlar, tarkibi suvli va moyli asosda bo'ladi). Steroidlar mushaklarni kuchli va katta qilishi mumkin, biroq ularni iste'mol qilish oqibati sog'liq uchun juda xavfli. Steroidlarni qabul qilishda yuzaga keluvchi oqibatlar:

- Psixologik qaramlik
- Tajovuzkorlikning oshishi
- Kayfiyatning tushib-chiqishi
- Jigarning kasallanishi
- Yurak-qon tomiri tizimida muammolarning yuzaga kelishi
- Arterial bosimning oshishi
- Jinsiy zaiflik va boshqalar.

Anabolik steroidlarni qabul qilish natijasida erkaklarda yuzaga keladigan nojo'ya ta'sirlar:

Tuxumdonlarning qisqarishi v urug' ishlab chiqarilishining kamayishi; jinsiy maylning susayishi.

Ayollarda:

ovozning dag'allashuvi, yuz va badanda tuklarni haddan oshiq o'sishi va xayz ko'rish davrining buzilishi.

2. O'SISH GORMONI

O'sish gormonlari deb nomlanuvchi atama ham keng tarqalgan bo'lib, ushbu gormon yordamida mushaklarning hajmi va kuchi ko'payib borishi, tayanch-harakatlantiruvchi apparat (bo'g'imlar, paylar, mushak pardasi, suyaklar)ning unsurlarini mustahkamlash sodir bo'ladi. Biroq, balog'atga yetgan odamning uni iste'mol qilishi qo'l va oyoqlar hamda turli ichki organ to'qimalarining qayta o'sishiga olib keladi, bu esa, tabiiy taqsimlanishning buzilishi bilan bog'liq patologiyani (shuningdek, yurak, buyrak, o'pka va boshqa organlar muammolarini) keltirib chiqarishi mumkin.

Sog'liqqa ta'siri:

O'zgaruvchan qomat, kuchli bosh og'rig'i, ko'rish qobiliyatining buzilishi, arterial bosimning oshishi va yurak faoliyati yetishmovchiligining rivojlanish xavfi, diabet va saraton, artrit, yurak devorlarining kengayishi, jigar va qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi.

3. ERITROPOETIN

Eritropoetin bir qarashda ozorsiz bo'lib ko'rinsa-da, doping preparati sifatida inson organizmiga kam bo'lmagan darajada zarar keltirishi mumkin. Tibbiyotda eritropoez tushunchasi ostida hujayralarga kislorod yetkazib berish funksiyasini bajaruvchi yetuk eritrotsitlarning shakllanishi tushuniladi.

Yuqori dozada qabul qilingan kislorodlar natijasida energetik faollik va organizmning chidamliligi keskin oshadi. Biroq (aynan shu yerda eritrotsidlar "tug'iladi") doimiy kuchaytirish vaqt o'tishi bilan yemirilishga va qon patologiyasiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, qizil qon tanachalarining oshirilgan hajmi qonni quyuqlashtiradi, ya'ni qon tomirlarining, shuningdek yurak va miyada tiqilishlar paydo bo'lish xavfini kuchaytiradi. Bu esa tegishlicha infarkt yoki insult bilan xavf soladi.

4. STIMULYATORLAR

Simulyatorlar ham sportchilar uchun ta'qiqlangan moddalar hisoblanadi. Stimulyatorlar organizm faoliyatini yoki uning ayrim tizimlarini kuchaytiradi va ushbu vositalar guruhi musobaqalar o'tkazish vaqtida ta'qiqlanadi. Ushbu vositalarning ta'sir kuchi qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lib, uning samarasi o'laroq markaziy va periferik asab tizimiga stimullovchi ta'sir qiladi.

Stimulyatorlarni qo'llash quyidagi oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin:

- bezovtalik va tajovuz;
- Chanqoqlik;
- Vazn yo'gotilishi;
- Organizm harorat almashinuvi (termoregulyatsiyasi)ning buzilishi;
- Aritmiya;
- Qon bosimining oshishi;
- Insult xavfining oshishi.

Ushbu vositalarning aksariyati shamollashga qarshi preparatlar tarkibiga kiradi. Xususan, mazkur vositalar burun spreylari, quloq va ko'z tomchilari tarkibiga kiradi. Shuning uchun sportchi har qanday dori iste'mol qilishdan avval unda ta'qiqlangan ingredient bor-yo'qligini tekshirishi kerak. Stimulyatorlar titroq va bezgak, harakatni boshqarish bilan bog'liq muammolar, yurak faoliyatining tezlashishi, keyinchalik xushini yo'qotish va ayrim hollarda o'limga olib borishi, qaramlikni keltirib chiqarishi va ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.

5. KANNABINOIDLAR

Sportchilar tomonidan antidoping qoidalarining buzilishi bilan bog'liq preparatlarning yorqin namunalaridan biri kannabinoidlar hisoblanadi. Kannabinoidlar quyidagicha bo'ladi: tabiiy (masalan, kannabis, nasha va marixuana) yoki sintetik (masalan, delta-9-tetragidrokannabinol, kannabimimetiklar va boshqalar).

Nasha (marixuana) 400 dan ortiq kimyoviy birikmalardan iborat tarkibga ega bo'lishiga qaramay, zehnga ta'sir etuvchi asosiy faol ingrediенти bu delta-9-tetragidrokannabinol (TGK) hisoblanadi. TGK yog' to'qimalari hamda miya, jinsiy organlar, qora taloq va o'pka kabi organlarda to'planadi. TGKning aksariyat konsentratsiyasi miyaning harakat, o'qitish va xotirani boshqarishga mas'ul qismlarida to'planishi kuzatilgan.

Aksariyat chekiluvchi aralashmalar tarkibida tabiiy kannabinoidlar ta'sir kuchidan ko'ra ko'proq kuchga ega sintetik kannabinoidlar mavjud. Birinchi navbatda chekiluvchi aralashmalarning ta'siri ruhiyatni o'zgartirishga yo'naltirilsa-da, biroq insonning jismoniy sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umumiy nobud qiluvchi ogibatlaridan tashqari sintetik kannabinoidlar o'rganuvchanlik va keyinchalik unga qaramlik holatini kuchaytiradi.

«Spice» - zirovar, xushta'mlik - kimyoviy vositalar surilgan o't shaklida sotuvga chiqariluvchi sintetik chekiladigan aralashma brendlardan biri. Hozirgi vaqtda sintetik kannabinoidlarning aksariyati spicingning amaldagi analoglari hisoblanadi.

Kannabinoidlar haqida bilish zarur bo'lgan ma'lumotlar: tabiiysi (masalan, kannabis, nasha va marixuana) yoki sintetik delta-9-tetragidrokannabinol (TGK) va kannabimimetiklar, masalan, Spise, JWH-018, JWH-073, HU-210 - Xalqaro antidoping agentligining "Ta'qiqlangan substansiya va uslublar ro'yxati"dagi S8-Kannabinoidlar sinfiga mansub bo'lib, ular musobaqa davrida ta'qiqlanadi. Muammo shundaki, musobaqadan tashqari vaqtda, Xalqaro antidoping kodeksiga ko'ra, narkotiklar (S7-narkotiklar sinfi) va kannabinoidlar ta'qiqlanmaydi. Biroq, musobaqadan tashqari vaqtda iste'mol qilingan narkotik moddalar organizmdan uzoq vaqt davomida chiqishi bois musobaqa davrida aniqlanishi mumkin bu esa antidoping qoidalarning buzilishi hisoblanadi! Shu bilan birga musobaqadan tashqari vaqtda kannabinoidlar iste'mol qilish (musobaqa davrida ham!) sportchining sport tartibini buzadi bu esa, o'z-o'zidan tartib-intizom buzilishi uchun jazolanishga olib keladi.

Bundan tashqari, kannabinoidlarni sotib olish va saqlash – qat'iy javobgarlikka olib kelishini unutmash kerak.

6. NOSVOY

Hozirda nosvoy, 18 yoshga to'lgan shaxslargagina sotib olish ruxsat etilgan sigaret va spirtli ichimliklarga nisbatan topish oson bo'lgan vositaga aylandi. Bundan tashqari u arzonligi bilan ham ajralib turadi - uning narxi sigaretdan ham arzon. Nosvoyning asosiy tarkibiy qismi oddiy maxorka yoki tamaki hisoblanadi. Avval tamakiga o'xshash "nos" deb nomlanuvchi o'simlikdan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik ushbu vosita shu nom bilan atalgan. Tamakidan tashqari nos tarkibiga so'ndirilgan oxak yoki quruq spirt, turli o'simliklarning kuli, tuya tezagi

tovuq axlati polizga solinishidan avval suvga aralashtiriladi, chunki o'zini solinsa o'simlik ildizini kuydirib zarar keltirishi mumkin. Nosvoy tarkibiga esa tovug axlati hech qanday aralashmasiz, boricha qo'shiladi. Nosvoyni iste'mol qilish insonda qayd qilish, bosh og'rig'i, oshqozon buzilishini keltirib chiqaradi va lablarda qavariqlar, yaralar paydo qiladi. Shunga e'tibor berish zarurki, nosvoy chekuvchilar tajangligi, bir xil bo'lmagan harakatlar bilan ajralib turadi. Ular o'zlarini qo'pol tutishlari, o'qituvchi, murabbiy yoki ota-onaga nisbatan surbetlik va hatto tajovuz qilishlari mumkin. Nosvoyni ko'proq sotish uchun odatda uning tarkibiga nasha yoki boshqa narkotik moddalar ham aralashtiriladi. Shu tariqa, sekin-asta "beozor» nosvoyga ko'nikishdan boshqa narkotiklarga o'tish mumkin.

7. SPORTDAGI BIOLOGIK FAOL GO'SHIMCHALAR

Biologik faol qo'shimchalar (BFQ) ovqatga qo'shiladigan go'shimchalar xolos, ular dori vositalari emas, aksincha zarar yetkazmaslik talab etiladigan qo'shimcha ozuqa hisoblanadi. Biroq hozirgi vaqtda BFQlar ozuqa sifatida sportchilar uchun o'ziga xos tijoriy shov shuvlarni boshdan kechiryapti. Shunday kompaniyalar paydo bo'lmoqdaki, ular mahsulot sifatidan iqtisod qilib kam xarjli, lekin katta foyda ko'rish ilinjida turli xil nom ostida BFQlarni ishlab chiqarishmoqda.

Hududiy antidoping tashkilotlari biologiki faol qo'shimchalarni qabul qilishni sportchilar bilan bir qatorda fitnes klublarda shug'ullanuvchilarga ham tavsiya qilmaydi. Sababi, ba'zi hollarda ularning tarkibida qadoqda ko'rsatilmagan va ta'qiqlangan substansiyalar aniqlanmoqda.

U yoki bu go'shimchani iste'mol qilishdan oldin, avval bu haqiqatdan ham zarurmi va sport kar'yerasiga va sog'liqqa zarar keltiruvchi xavfi yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak.

Shuni yodda tutish lozimki, BFQ ko'rinishidagi sport ozuqalarining 70%ini qalbaki mahsulotlar tashkil qiladi. Ularning tarkibida sportda ta'qiqlangan anabolik steroidlar, psixostimulyatorlar, peshob haydaydigan va boshqa moddalar bo'lishi mumkin. Asosan internet orqali olinadigan sport ozuqalari mahsulotlaridan ehtiyot bo'lish kerak. Ko'plab davlatlarda bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish hukumat tomonidan boshqarilmaydi. Bu esa, mahsulot tarkibiga kiruvchi ingredientlar qadoqda ko'rsatilgan moddalarga muvofiq kelmasligi, hatto antidoping qoidalari bilan ta'qiqlangan bo'lishi mumkin. Biologik faol qo'shimchalar va sport ozuqalariga shifokor tavsiyasisiz mustaqil foydalaniladigan universal vosita sifatida qaramaslik lozim. Bu sog'liq va sport kar'yerasi uchun xavfli bo'lishi mumkin.

8. ENERGETIK ICHIMLIKLAR

Energetik ichimliklar, yoki energetiklar, tetiklashtiruvchi kuchga ega alkogolsiz ichimliklar bo'lib, ular sport bilan shug'ullanuvchilar va yoshlar orasida keng tarqalgan. Energetik ichimlikning bunday ommalashuvi muvaffaqiyatli marketing strategiyasi bilan izohlanadi.

Reklama kompaniyalari iste'molchilarga "energiya shiddati" jismoniy va aqliy kuchning ko'payishini va'da qiladilar. Ishlab chiqaruvchi kompaniyalar yirik sport musobaqalariga homiylik qilishadi. Shu tariqa, energetiklarni iste'mol qilishni asosan sport va harakatda yurgan faol hayot kechiruvchi yoshlar bilan bog'lashadi. Biroq shu kabi ichimliklarning energetik samarasi xom hayol bo'lib, aslida energetiklar organizm zaxiralariidan foydalanadi. Ular energiya manbasi hisoblanmaydi. Ishlab chiqaruvchilar chidamlilikni oshirish va sport natijalarini yaxshilashga va'da beradi, shu bilan birga amaldagi ingredientlar - bu kofein va/yoki ularning oxshashlari (taurin, glyukoronolaktin va b.), shakar, o'simlik ekstrakti hisoblanadi. Ularning faoliyati, bu faqat vaqtincha yurak ritmini tezlashtirish, qon bosimini oshirish va organizmda chanqoqlikni oshirishdan iborat.

Energetik ichimliklarni iste'mol qilishdagi xavfli jihati shundaki, aksariyat yoshlar uni alkogol bilan bir vaqtda ichishidir. Masalan, "aroq-energetik" kokteyli organizm faoliyatiga jiddiy zarba beradi.

Kokteyl tarkibidagi kofeinning haddan ortiq dozasi odamda mastlik xissini kamaytiradi va natijada alkogolni keragidan ortiq ichishga olib keladi. Bu esa, alkogol intoksikatsiya xavfini 3 barobarga oshiradi.

Energetiklarni alkogol bilan birga ichish mastlik xissini kamaytiradi, mastlikni emas!

Energetik ichimliklar, hatto ular sport ichimligi sifatida sotilsa ham, sport bilan shug'ullanish vaqtida ichish tavsiya etilmaydi. Ular chanqoqni bosmaydi, aksincha, mashg'ulotgacha bo'lgan vaqtda yoki keyin ichish organizmning suvsizlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, energetik ichimlikni muntazam jismoniy shug'ullanish vaqtida iste'mol qilish yurak qon tomirlarining muammosini keltirib chiqarishi mumkin.

Energetik ichimliklarni haddan ortiq iste'mol qilish quyidagi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

jizzakilik, yurakning tez urishi, uyqusizlik, depressiya, kayfiyatning tez o'zgarishi va b. Energetik ichimlik tarkibidagi shakar moddasining ko'pligi bois (250 ml ga 9 bo'lak shakar to'g'ri keladi, solishtirish uchun oddiy gazlangan ichimlikda 6 bo'lak shakar bor) uni iste'mol qilish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Xususan, tish emalinining yemirilishi, ortiqcha vazn, ichak faoliyatining buzilishi, gaz hosil bo'lishning ko'payishi, oshqozonda sanchqi ko'rinishidagi og'riqlar, allergik kasalliklar, modda almashinuvining buzilishi, jigarning kengayishi, qandli diabet. Shuningdek, energetikning tarkibiga kiruvchi katta miqdorda kofein narkotiklarga o'xshab qaramlikni keltirib chiqaradi. Kofeinni bir kilogramm vaznga 150 mg dozada bir martalik iste'mol qilish o'limga olib keladi. O'rtacha bir banka, ya'ni 250 g hajmdagi energetik 80 mg kofeinga ega. Biroq, aksariyat energetiklar 500 g hajmdagi bankalarda sotiladi va shunga muvofiq ularning tarkibida 160 mg kofein bo'ladi.

"Ta'qiqlangan substansiya va uslublar ro'yxati" va xalqaro standartlar Ta'qiqlangan substansiya va uslublar ro'yxati (keyingi o'rinlarda -Ro'yxat) - Xalqaro antidoping agentligi (WADA) tomonidan tuziladigan ta'qiqlangan substansiya va uslublarni o'z ichiga oladi.

WADA har yili yilda bir marta mazkur Ro'yxatni yangilaydi. Yangilangan Ro'yxat, tabiiyki har yilning birinchi yanvaridan kuchga kiradi. Yangilangan Ro'yxatni WADA veb-saytida bir necha oy oldin ko'rish mumkin bo'ladi.

Ta'qiqlangan Ro'yxatni uchta asosiy guruhlariga bo'lish mumkin:

Doimo ta'qiqlangan substansiya va uslublar. Bular musobaqa davrida ham musobaqadan tashqari paytda ham ta'qiqlanadi (iste'mol qilish mumkin bo'lmagan substansiyalar: anabolik steroidlar, peptid gormonlari, o'sish gormoni va shunga o'xshash substansiyalar, beta-2-agonistlar, gormonal antagonistlar va modulyatorlar, diuretiklar va boshqa maskirovkalangan agentlar, kimyoviy va fizik manipulyatsiyalar, genga oid doping).

Faqat musobaga davrida ta'qiqlangan moddalar (stimulyatorlar, kannabinoidlar, glyukokortikosteroidlar).

Sporting alohida turlarida ta'qiqlangan moddalar (alkogol va betablokatorlar).

Ta'qiqlangan substansiya va uslublar Ro'yxatining amaldagi shaklini

WADA veb-saytidan yuklab olishingiz mumkin:

<https://www.wada-ama.org/en/resources/sciencemedicine/prohibited-list>

Ta'qiqlangan vositalardan terapevtik foydalanish:

Terapevtik foydalanish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq sportchi tegishli antidoping tashkiloti tomonidan terapevtik foydalanish bo'yicha mazkur Qo'mitaning yoki xalqaro federatsiyaning ruxsati bilan ta'qiqlagan ro'yxatdagi vosita va uslublardan foydalanish huquqiga ega. Agar Sizning salomatlik holatingiz ta'qiqlangan ro'yxatdagi substansiya va uslublardan foydalanishni talab etsa, Xalqaro antidoping kodeksiga muvofiq ulardan istisno tariqasida terapevtik foydalanish (TF)ga ruxsat taqdim etiladi.

TERAPEVTIK ISTISNO OLISH UCHUN MEZONLAR:

- 1.Sog'liqni yomonlashuviga olib keladigan hollarda ta'qiqlangan substansiya va uslublarni qo'llamaslik;
- 2.Taqiqlangan substansiya va uslublar sport natijasini yaxshilashga ta' sir ko'rsatmasa;
- 3.Ularni foydalanishdan boshqa chora topilmasa;

TERAPEVTIK ISTISNO RASMIY TALABI NIMA?

Tiga ruxsatnoma olish uchun sportchi TIGA rasmiy talabni tegishli tashkilotga to'g'ri rasmiylashtirib quyidagilarni taqdim etishi kerak.

SPORTCHI HAQIDA MA'LUMOT:

- 1.Sportchining familiyasi va ismi, jinsi; u bilan bog'lanish ma'lumotlari;
- 2.Sport turi/intizomi;
- 3.Sportchining darajasi (xalqaro yoki milliy federatsiyaga ta'luqliligi);
- 4.Jismoniy imkoniyatlari cheklangan sportchi hisoblanishi yoki hisoblanmasligi.

TIBBIY MA'LUMOT:

- 1.Kasallikka qo'yilgan to'liq tashxis;
- 2.Ta'qiqlangan substansiya va uslubdan foydalanish uchun asos;
- 3.Tibbiy tafsilotlar:
Ta'qiqlangan substansiyaning patentlanmagan nomi;
1. Doza miqdori;
2. Iste'mol qilishning davomiyligi, uslubi takrorlanishi;
3. Laboratoriya va klinik tadqiqotlar natijasi;
4. Mazkur so'rovnoma tegishli rentgen va boshqa suratlar va grafiklar rasmiy talabnomaga ilova etilishi zarur.
5. Shifokor deklaratsiyasi, ta'qiqlangan substansiya va uslubni qo'llash zaruratini tasdiqlovchi hujjat hamda familiyasi, tibbiy sohasi, shifokor ma'lumotlari, shifokor tomonidan imzolangan tibbiy ma'lumot bilan tasdiqlangan bo'lishi;
6. Avvalgi rasmiy talablar, agar foydalanilgan bo'lsa;
7. Sportchi deklaratsiyasi TF bo'yicha Komissiya va boshqa mas'ul shaxslar tomonidan uning shaxsiy tibbiy ma'lumotlarini ko'rib chiqilishiga ruxsat beradi.

Sportchi TIFga rasmiy talabnoma bo'yicha berilgan barcha hujjatlarning nusxalarini o'zida saqlashi kerak. TIGA rasmiy talabnoma berishdagi barcha sarf-xarajatlar sportchi tomonidan qoplanadi.

TERAPEVTIK ISTISNO TAQDIM ETILADIGAN RASMIY TALABNING MUDDATI:

Tlga rasmiy talab ta'qiqlangan substansiya va uslubni qo'llash zarurati tug'ilganda qisqa vaqtga beriladi, lekin qo'llashdan avval faqat musobaqa davrida ta'qiqlangan substansiya va uslubdan foydalanish uchun TI talabnomasi musobaqalardan 30 kun oldin topshiriladi.

TERAPEVTIK ISTISNO RASMIY TALABNOMASI BO'YICHA QAROR:

1. TF bo'yicha Komissiya talabnomani olgan kundan boshlab 21 kun davomida ko'rib chiqadi;
2. Sportchiga yozma ravishda xabar beriladi va ADAMS tizimida ro'yxatga olinadi;
3. TI berishga rad javobi berish, asosli sabab bilan ko'rsatilishi kerak.
4. Sportchi TI qarori bilan rozi bo'lmasa tegishli apellyatsiya organlariga qayta murojaat etish huquqiga ega.

WADA har qanday Tlni ko'rib chiqish huquqiga ega. WADA qarorini apellyatsiyaga berish Lozanna shahridagi arbitraj sudi orqali amalga oshiriladi.

TERAPEVTIK ISTISNO BO'YICHA QARORNI KIM BERADI?

Milliy darajadagi sportchilar uchun TI ruxsatnomasini Milliy antidoping tashkiloti yoki hududiy antidoping tashkiloti beradi.

Rasmiy talab tasdiqlangan shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi va TI bo'yicha Komissiya (TFK) tomonidan ko'rib chiqiladi. Tlga ruxsatnoma unda ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi va ko'rsatilgan substansiya va uslubga qat'iy belgilangan dozada foydalanish talab etiladi. TI berilgan tashkilot tomonidan talab va shartlar bajarilmagan holatda muddati tugaguniga qadar chaqirib olinishi mumkin.

Xalqaro Federatsiya (XF) xalqaro darajadagi sportchilar uchun (XF aniqlashi bo'yicha), XFning Ro'yxatdan o'tgan testiga kiruvchi sportchilar yoki xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchi sportchilar uchun Tlga ruxsatnoma beradi. TI ga rasmiy talab XFning talabnoma shakli bo'yicha yoki ADAMS tizimi orqali rasmiylashtiriladi.

Agar ta'qiqlangan substansiya va uslubning qo'llanilishi yirik sport musobaqalarida kerak bo'lsa (masalan, Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va b. unda Tlga ruxsatnomani yirik sport tadbiri tashkilotchilari tomonidan beriladi.

DIQQAT

Sportchi doping test topshirayotganida Tlga olingan ruxsatnoma nusxasini taqdim etishi shart.



UzNADA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY ANTIDOPING AGENTLIGI**



WWW.UZNADA.UZ



TELEGRAM KANALI